

**XALQ MAQOLLARIDA OILAVIY MUNOSABAT VA MULOQOT
KO‘RINISHLARI
ЯВЛЕНИЯ СЕМЕЙНЫХ ОТНОШЕНИЙ И ОБЩЕНИЯ В НАРОДНЫХ
ПОСЛОВИЦАХ
EXPRESSING FAMILY RELATIONS AND COMMUNICATION IN
PROVERBS**

Islom Jo‘rayev Mamasodikovich,
FarDU ingliz tili kafedrası o‘qituvchisi
im.jorayev@pf.fdu.uz

Annotatsiya. Maqol xalq hayotiy tajribalari xulosasini badiiy jihatdan mukammal ifodalovchi hikmatli so‘zlardan iboratdir. Maqollarda ifodalanishi lozim bo‘lgan fikr va mazmun keng qamrovli bo‘ladi. Xalqimiz tomonidan qo‘llanadigan har bir maqol hayot tajribasidan o‘tgan, zamonlar sinoviga bardosh bergan so‘z san’ati namunasidir.

Kalit so‘zlar: maqol, til, oila, muloqot, paremiologiya.

Аннотация. Пословица состоит из мудрых слов, художественно прекрасно выражающих вывод жизненного опыта людей. Идеи и содержание, выражаемые в пословицах, весьма разнообразны. Каждая пословица, используемая нашим народом, является образцом словесного искусства, прошедшего проверку временем.

Ключевые слова: пословица, язык, семья, общение, паремнология.

Annotatsiya. Maqol odamlarning hayotiy kechinmalarining xulosasini badiiy go‘zal ifodalaydigan hikmatli so‘zlardan iborat. Maqollarda ifodalangan fikr va mazmun juda xilma-xildir. Xalqimiz qo‘llagan har bir maqol zamon sinovidan o‘tgan so‘z san’ati namunasidir.

Kalit so‘zlar: maqol, til, oila, muloqot, paremiologiya.

Yer yuzida hayotning boshlanishi ham oila hamda maishiy turmush tafsilotlari bilan ifodalangan. Folklorning keng tarqalgan maqol janrida ham ijtimoiy tizimning

maishiy halqasi quyidagicha izohlanadi: “Boshing ikki bo‘lmaguncha, moling ikki bo‘lmaydi”. [1.64]

Qadimdan oila qurish, uni asrab avaylash muhim ahamiyat kasb etgan. Har bir yigit-qiz o‘z orzusidagi oilaviy baxtga erishishni istaydi. Lekin, hamma vaqt ham orzular amalga oshavermagan. Tarixdan ma’lumki, qizlar ko‘pincha hali balog‘atga yetmasidanoq zodagon va badavlat qariyalarga turmushga uzatilgan. Jamiyatdagi bunday noo‘rin tartib-qoidalar o‘ta keskin xarakterga ega bo‘lgan maqollarning yuzaga kelishiga sababchi bo‘lgan. Masalan: “Teng tengi bilan tezak qopi bilan”. Ayrim otalar voyaga yetmagan qizini iqtisodiy nochorlikdan, ilojsizlikdan sotib yuborganlar. Qizlarini sotish hisobiga turmush tarzini o‘nglab olishni maqsad qilganlar. Bunga erishish uchun qizning hoxish istaklari, orzu-umidlari bilan hisoblashmaganlar, majburan turmushga uzatganlar. Farzandlariga nisbatan qilingan tahqirlashlar, kamsitishlar, zo‘ravonliklar natijasida ko‘plab fojialar ham yuz bergan. Bu fikrga quyidagi maqollar dalil bo‘la oladi:

“O‘lganimning kundan cholga tegib boraman”,

“Etagimmi, yengimmi, o‘sha mening tengimmi?!”, [2.86]

Xalqning ilg‘or fikrli vakillari bunday tuban ishlarni qoralaydi va shunday deydi: “Erta pishgan olma erta chirydi”. Donishmand Sa’diy Sheroziy ham ishora qiladi: “Yosh ayol cholning quchog‘ida yotganidan biqiniga pichoq botgani yaxshi”.

Farzandlar tarbiyasida ota-onalarning o‘rni beqiyosdir. Bolalarining kelajakda kamol topib jamiyatda o‘z o‘rniga ega bo‘lishi, albatta ota-onalarga bevosita bog‘liq. Quyidagi misollar shuni uqtiradi: “Ota bo‘lish oson otalik qilish qiyin”, “Ota bolaga – sinchi” kabi maqollarda o‘z farzandining xulq-atvorini, xarakterini yaxshi bilishi va shunga qarab munosabat qilishi zarur deyilmoqda. [2.314]

Farzandlarni kasb-hunarga o‘rgatish, hayot qiyinchiliklari oldida dovdirab qolmasliklari uchun bardoshli qilib tarbiyalash lozimligi ta’kidlanadi: “Otali o‘g‘il – egali qul”, “O‘g‘lingni sevsang qulingdek ishlat”. [2.315]

Bolaga nisbatan mehrni oshkora ifoda etib, uni haddan tashqari taltaytirish ham yaxshi oqibatga olib kelmaydi. Natijada qulog‘iga gap ilmaydigan, o‘zboshimcha

bo‘lib shakllanadi. Bu fikrni quyidagi maqol dalillaydi: “Otaning ko‘ngli bo‘shligi – bolaga qo‘l keladi”, yoki “Otaning yuvoshi – bolaning rohati”.

Ba‘zan otalar qilgan xatosining tovonini to‘lash farzandlar zimmasiga tushadi. Afsuski, hayotimizda nodon, gunoh ishlardan tiyilmaydigan otalar ham yo‘q emas. Shu ma‘noda, “Ot kiftining yag‘iri bolasiga meros qoladi”, degan maqol bekorga keltirilmaydi. Ya‘ni, otalar hushyor bo‘lsinki, farzandlar jabr tortmasin deya uqtirilmoqda. Bejizga dono xalqimiz “ Qazisan qartasan – o‘z naslingga tortasan” demaydi.

Bugungi kunda mafkura inson ongi uchun kurash ketayotgan globallashgan dunyoda ma‘nan yetuk, har qanday yot g‘oyalarga immuniteti kuchli farzandlarni tarbiyalash har bir ota-onaning eng muhim burchidir. Millatning shakllanishida oilaning ta‘siri dolzarb ahamiyatga ega. Zamonaviy jamiyatda yoshlarga milliy qadriyatlarni uyg‘un holda singdirib borish darkor.

Shuningdek maqollarda, qadimdan ota-bobolarimiz o‘z farzandlariga hamisha xalq bilan birga hamnafas bo‘lishga, elga xizmat qilishga, qadr-qimmatini yuqori tutishga undab kelganligi uqtiriladi.

“ Yerdan ayrilsang ham, eldan ayrilma”,

“ Buloq suvi soyga oqar, mard o‘g‘lon elga boqar” [2.440]

Bu kabi maqollarda yigitlarni el koriga yaraydigan, mard, diyonatli qilib tarbiyalash g‘oyalari ilgari suriladi.

Taqdir taqozosi bilan ota qayta uylansa, avvalgi xotinidan qolgan farzandlariga nisbatan doimgidek g‘amxo‘r ota bo‘la olmaydi. Ko‘pincha bunga yangi oilasi imkon bermasligi mumkin. Erkak o‘z so‘zida turadigan qatiyatli, mavqeini saqlay biladigan bo‘lsa ham, baribir payti kelganda xotinning yo‘rig‘iga yurishga majbur bo‘ladi. Quyidagi maqolda hayoti o‘gay onaning qo‘lida bo‘lgan bolalarga nisbatan holat aks etgan: “Onang o‘gay bo‘lsa, otang o‘zingniki emas”. [2.302]

Maqollarimizdan yana bir qatrasida “Onali yetim – gul yetim, otali yetim – shum yetim” deb ta‘kidlanadi. Ya‘ni, bola otasiz qolib, yolg‘iz ona qo‘lida voyaga yetsa, har tomonlama tarbiyali, bilimli, mehribon, pokiza bo‘lib tarbiya topadi.

Chunki, ona bolasini asrab-avaylaydi, atrofida parvona bo‘ladi, vaqtini, mehrini unga baxshida etadi. Ayrim holatlarda ota bilan zo‘raygan bolada aksincha, yuqoridagi sifatlarga nisbatan teskari holat uchrashi mumkin. Sababi, ota moddiy ta‘minot ilinjida yuradi, doim bolaning nazoratini qila olmaydi.

Shunga o‘xshash maqollarimizdan biri “Otasi bir otishar, onasi bir topishar”da ham onaning bola tarbiyasida asosiy rol egallishi anglashiladi. Ma‘lumki, otasi bir, onalari boshqa-boshqa farzandlar ko‘pincha, oilaviy ziddiyatlarga duch kelishadi. Asosiy sabablardan biri merosga ega chiqish. Bunga erishish uchun onalar o‘z farzandlarini dastaklaydi va gij-gijlaydi. Bu esa, o‘z navbatida, keskin to‘qnashuvlarga olib keladi. Bunday voqealarni tarixda yashab o‘tgan amirlar, xonlar misolida ko‘rishimiz mumkin. Otasi boshqa onasi bir bo‘lgan farzandlar odatda, bir-birlari bilan inoq yashaydilar. Chunki, ona ularni o‘zaro begonalashtirmay, mehr-oqibatli qilib tarbiyalaydi. Shu jihatdan, onaning oilaga ta‘siri muhim ahamiyat kasb etadi.

Milliy an‘analar ma‘naviy sog‘lom oilani barpo etadi. Shaxs ma‘naviyati dastlab oila sharoitida shakllanadi va jamiyat ma‘naviyatini belgilovchi mezon sifatida namoyon bo‘ladi. Yuksak ma‘naviyatga ega ota-ona oilaning mohiyati, qadri, burch, mas‘uliyat, oila vazifalari, oilada barkamol farzand tarbiyasi, oilani moddiy jihatdan ta‘minlash, uning osoyishtaligini saqlash kabi vazifalarni anglab yetadi va unga amal qiladi.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbek xalq maqollari. –T.:1958.
2. Sh. Shomaqsudov, Sh. Shorahmedov – Hikmatnoma.O‘zbek maqollarining izohli lug‘ati. O‘zbek ensiklopediyasi bosh redaksiyasi. Toshkent,1990.
3. Madayev. O. Sobitova T, Xalq og‘zaki poyetik ijodi. — T.: «Sharq», 2010.